



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No 7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 613 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsonal asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovish Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in Uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi.....	259
Ermatov Nosir Tohirovich	
Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash	265
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna	
Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана.....	272
Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна	
O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari.....	280
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	



Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики.....	288
Абдуллаев Абдурауф	
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari.....	299
Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	303
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva	
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash	310
Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich	
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari	315
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi.....	320
Karlibaeva Gulshat	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri	325
Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li	
Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish.....	330
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Принципы перехода к «Зелёной экономике» в Республике Узбекистан.....	336
Хамракулова Сусанна Тотуховна	
Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlash modellarini qo'llash	340
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Raqamli ta'lim sharoitida liderlikning yangi qirralari	357
Oqmullaev Ravshan Raximjon o'g'li, Xodjieva Durdona Abdurasulovna	
Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях.....	361
Muradov Botir Xayat	
Strategik budjetlashtirish tizimining natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi bilan bog'liqligi, xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar	370
Xushmurotov Zoyir Bektemirovich	
Cultural branding and the entry of traditional products into the international market.....	374
Zebiniso Ganiyeva	
Farovonlikni baholash bo'yicha ilg'or xorijiy nazariy yondashuvlar	379
Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	
O'zbekistonda hududlarini turizm salohiyatini innovatsion yondashuv asosida baholash	384
Umirova Dilnoza Safarovna	
Tourism education for sustainability: curriculum development in universities of Uzbekistan	393
Temirova Durdona, Yorqulov Muhammadmurod	
The contribution of small enterprises and private entrepreneurs to job creation in the labor market.....	399
Juraboev Haliljon	
Iqtisodiy o'sish sharoitida transport infratuzilmasi holati va uni rivojlantirish yo'llari.....	404
Haydarov Jahongir Aktamovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni strategik boshqarishning nazariy asoslari va xorijiy tajribalar	410
Quvondiqov Farrux Ibragimovich	
Tijorat banklarida iqtisodiy samaradorlikni axborot texnologiyalar orqali rivojlantirish istiqbollari.....	418
Dadenova Gulxan Kenesbaevna	
Механизмы совершенствования процедур выявления и анализа недостоверной финансовой отчетности в условиях учетной практики Узбекистана	422
Намозов Жасурбек Кувадович	
Влияние цифровых инструментов управления финансами на эффективность использования финансовых ресурсов	428
Хазираткулов Собиржон	




На пути к промышленному росту: опыт развивающихся стран.....	435
Матлюбов Хуршид Жамшидович	
Yoshlarning moliyaviy mustaqilligiga erishishida aksiyalar bozorining o'рни va imkoniyatlari.....	443
O'raqov Bekzodbek Abdurayxon o'g'li	
Развитие транспортной инфраструктуры и влияние на качество предоставляемых транспортных услуг.....	448
Кайыбеков Парахат Конысбаевич	
Surxondaryo viloyatida 2015-2024 yillar mobaynida oziq-ovqat chakana savdo aylanmasining statistik tahlili.....	454
Toshpulatov Bobur Rasul o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasi investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari orqali moliyalashtirish.....	458
Tolibov Shoxrux Muminovich	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari va muammolari.....	463
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Institutional innovation and regional governance for balanced interregional cooperation development: the case of Namangan, Uzbekistan.....	468
Sattarov R.A.	
Organizational and economic mechanisms and conceptual directions of tourism development in the region.....	476
Daminova Barno Esanovna	
Moddiy zaxiralarni boshqarish va uning bir tsikli modeli.....	480
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	
Oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda inson kapitalini rivojlantirish va uni samarali boshqarish mexanizmlari.....	485
Salimov Akmal Alimjonovich	
Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilg'or xorij tajribalari.....	490
Shadiyev Alisher Xudoynazarovich	
Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari.....	496
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
O'zbekistonda uzumchilikning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	502
Tursunov To'liqin Jo'raqulovich	
Tadbirkorlik faoliyatining resurs salohiyati va uni baholashning nazariy yondashuvlari.....	508
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
Yoshlar bandligini ta'minlashda mehnat migrasiyasining ahamiyati.....	514
Masharipov Farrux O'tkirovich	
O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning asosiy omillari va istiqbollari.....	521
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
Korxonaning brend platformasini ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari.....	526
Sa'dulloev Habibullo Ibdullo o'g'li	
Sanoat korxonalarining biznes jarayonlarini raqamli transformatsiya qilishda ERP tizimlarining integratsiyalashuvi va boshqaruv samaradorligiga ta'siri.....	530
Islomjon Nurmukhammadov	
Namangan viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlanishini baholash.....	533
Ismoilova Savinoz Qahramon qizi	
Oliy ta'lim muassalari boshqaruviga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	540
Karimov Muzaffar Abdumalik o'g'li	
Soliq yig'iluvchanligini oshirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish istiqbollari.....	546
Tojibayev Farrux Baxtiyorovich	
Hisoblash mashinalari taraqqiyoti tarixi va uning raqamli iqtisodiyotda tutgan o'рни.....	552
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning xususiyatlari.....	561
Choriyrov Behruz Ilhom o'g'li, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Yashil texnologiyalar yordamida O'zbekiston hududlarida energiya tejamkorligi oshirish yo'llari.....	567
Norbekov Baxtiyor Suyunovich, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	



Tijorat banklarida kredit majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish va uni takomillashtirish yo'llari.....	572
To'xtayeva Go'zal Ilhom qizi, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Интеграция проектного менеджмента и обеспечения качества в цепочках поставок: кейс Узгидромета.....	577
Назарова Ирода Ибрагим кизи	
Kichik biznes subyektlarini raqamlashtirish orqali raqobatbardoshligini oshirish.....	583
Ermatov Akmaljon Adxamovich, Raximov Alisher Numanovich	
Концепция и методология экологического аудита в Узбекистане	587
Абидова Дилфуза Игамбердиевна	
Повышающаяся значимость коренного изменения деятельности традиционных СМИ в реалиях освещения процесса построения нового Узбекистана.....	593
Салим Дониёров	
O'zbekiston Respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining tarkibiy tuzulishi	598
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi energetika sektorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishning ahamiyati va istiqbollari	602
Uralov Temur Buxodir o'g'li	
Shahar va qishloqlarda inson resurslari holatining analitikasi (tahlili)ning nazariy masalalari.....	607
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	



SHAHAR VA QISHLOQLARDA INSON RESURSLARI HOLATINING ANALITIKASI (TAHLILI)NING NAZARIY MASALALARI



Pardayev Mamayunus Qarshibayevich

Xalqaro Turon Fanlar akademiyasining akademigi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori
Elektron pochta: pardayev_mk@mail.ru



Feruz Nematullayevich Abilov

Samarqand viloyat hokimining o'rinbosari,
SamISI tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0007-1716-4019

Annotatsiya: Maqolada shahar va qishloqlarda inson resurslari holatining analitikasi (tahlili)ga oid nazariy masalalar ko'rib chiqilgan. Unda inson resurslarini qishloq va shaharlar miqyosida alohida tahlil qilish yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Chunki qishloqdagi mehnat faoliyati shahardagi faoliyatdan farq qiladi. Bu holat ham o'z yo'nalishlari bo'yicha tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida e'tiborga loyiq ilmiy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: inson resurslari, inson resurslari analitikasi, shahar aholisi, qishloq aholisi, shahar hududi, qishloq hududlari, agroservis, agroservis xizmatlari.

Abstract: The article considers theoretical issues of analysis of the state of human potential in urban and rural areas. The directions of separate analysis of human potential in rural and urban areas are shown. Since working conditions in rural and urban areas differ, the analysis of these conditions was also carried out in separate directions. As a result of the study, important scientific recommendations were given.

Key words: Human resources, analytics of human resources potential, urban population, rural population, urban area, rural area, agroservice, agroservice services.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретические вопросы аналитики (анализа) состояния человеческих ресурсов в городах и деревнях. В частности, указаны направления анализа человеческих ресурсов на уровне сельских и городских населённых пунктов, поскольку деятельность в сельской местности и в городе отличается друг от друга. Эти различия также были подробно проанализированы с соответствующей спецификой. В результате исследования были предложены научные рекомендации, заслуживающие внимания.

Ключевые слова: человеческие ресурсы, аналитика человеческих ресурсов, городское население, сельское население, границы города, сельские территории, агросервис, услуги агросервиса.



KIRISH

Bugungi kunda qishloq va shahar aholisi o'rtasida yashash darajasi, bandlik va kambag'allik holatlari ma'lum darajada farq qilmoqda. Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'layotgani kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasida 2010-yilda jami aholining 48,4 foizi, 2020-yilda 49,4 foizi, Samarqand viloyatida esa 2010-yilda 62,7 foizi, 2020-yilda 62,9 foizi qishloq joylarda istiqomat qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich mos ravishda 49,0 va 63,3 foizni tashkil etgan.

Qishloqlarda shahar aholisiga nisbatan tug'ilish darajasi yuqori bo'lgani tufayli, qishloq aholisining ulushi mamlakat miqyosida nisbatan oshgan. Biroq, Samarqand viloyatida bu ulush qisqargan. Buning sababi ayrim qishloqlarning shahar hududiga qo'shib yuborilishidir. Ushbu holat qishloq joylarda yashovchi aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Shu sababli, qishloq hududlarida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va aholi uchun munosib ish o'rinlarini yaratish dolzarb bo'lib qolmoqda. Shunga qaramay, 2024-yilda jami iqtisodiyotda band bo'lgan aholining ulushi 45,1 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich qishloq aholisi ulushidan 3,9 foizga (49,0 – 45,1) kamligini anglatadi. Ushbu raqamlar yil sayin qishloq joylarda band aholi ulushi pasayib borayotganini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shahar va qishloqlarda inson resurslari holatining analitikasi bo'yicha nazariy tadqiqotlar turli yondashuvlar va konseptual asoslarga tayangan. Inson resurslarini tahlil qilishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, demografik tarkib, bandlik strukturalari va malakali ishchi kuchining mavjudligi muhim o'rin tutadi. G. Becker inson kapitali nazariyasida bilim va ko'nikmalarni iqtisodiy resurs sifatida talqin qilgan holda, ularni iqtisodiy o'sishdagi asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatadi. Bu yondashuv ayniqsa shahar va qishloq o'rtasidagi inson kapitali farqlarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

A. Sen esa inson taraqqiyotini faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki erkinliklar, sog'liq, ta'lim va imkoniyatlar orqali baholash lozimligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv qishloq aholisi orasida mavjud resurslardan to'laqonli foydalanish imkoniyatlarini chuqurroq tahlil qilishni talab qiladi. A. Giddens o'zining "strukturatsiya nazariyasi" orqali ijtimoiy tizimlar, xatti-harakatlar va resurslardan foydalanishdagi kontekstual tafovutlarni izohlab bergan bo'lib, bu yondashuv shahar va qishloqlardagi inson resurslari tizimini tahlil qilishda muhim asos bo'la oladi.

Mahalliy tadqiqotlarda esa, A. Xaitov O'zbekistonda inson salohiyati rivoji va mintaqaviy farqlarni tahlil qilishda mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi muvofiqlik darajasiga e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, M. Juraev demografik tuzilma va migratsion harakatlarning inson resurslariga ta'sirini o'rganib, shahar va qishloqlardagi ishchi kuchi tarkibida yuzaga kelayotgan tafovutlarni izohlaydi.

Zamonaviy yondashuvlarda inson resurslarini tahlil qilishda raqamli texnologiyalar va ma'lumotlar tahlili usullari ham qo'llanilmoqda. Xususan, J. Feldman va A. Martin GIS texnologiyalari asosida mintaqaviy mehnat resurslari taqsimotini tahlil qilishni taklif qilgan. Bu esa hududiy tafovutlarni yanada vizual tarzda aniqlashga imkon beradi.

Yuqoridagi yondashuvlar shahar va qishloqlardagi inson resurslari holatini tizimli, kompleks va kontekstual tahlil qilishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada shahar va qishloq hududlarida inson resurslari holatini tahlil qilishga doir nazariy masalalar tadqiq etilgan bo'lib, bu jarayonda induksiya va deduksiya, makon va zamon, mantiqiy hamda iqtisodiy tahlil kabi usul va yondashuvlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inson resurslari analitikasida ularni hududlar va mamlakat miqyosida baholash masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Chunki har bir hududning o'ziga xos jihatlari, u yerdagi xodimlarning malakasi va bandlik darajasi bir xil emasligi mazkur masalaning dolzarbligini yanada oshiradi. Masalan, bir hududda ishsizlik darajasi yuqori bo'lsa, boshqasida bu ko'rsatkich nisbatan past bo'lishi mumkin. Ba'zi joylarda ish o'rinlari yetarlicha yaratilayotgan bo'lsa, ayrim hududlarda bunga ehtiyoj yuqori bo'lishiga qaramay, ish o'rinlari kamroq yaratilmoqda. Shu sababli inson resurslarini hududiy kesimda tahlil qilish obyektiv zaruratga aylanmoqda.

Eng avvalo, inson resurslari qishloq va shaharlar miqyosida tahlil qilinadi. Chunki qishloqlardagi mehnat faoliyati shahardagi faoliyatdan sezilarli darajada farq qiladi. Qishloqlarda aholi asosan qishloq xo'jaligi ishlarida, ya'ni jismoniy mehnat bilan band bo'lsa, shaharlarda ko'proq aqliy mehnat, texnika va texnologiyalar



bilan shug'ullanishadi. Shunga mos ravishda mehnat shakli va inson resurslarining tarkibi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Inson resurslari analitikasida ushbu yo'nalishlardagi kadrlarga qanchalik ehtiyoj borligi va ular qay darajada band ekani o'rganiladi. Bu boradagi muhim yo'nalishlardan biri — har bir hududni unga mos kadrlar bilan ta'minlash masalasidir.

Qishloq hududlarida quyidagi sohalarda malakali kadrlar talab etiladi:

- qishloq maktablari uchun o'qituvchilar;
- agronomlar va boshqa qishloq xo'jaligiga oid mutaxassislar;
- veterinariya xodimlari;
- dehqonlar;
- traktorchilar va boshqa mexanizatsiya ishlari bilan shug'ullanuvchilar;
- chorvadorlar;
- bog'bonlar;
- axborot texnologiyalari bilan ishlovchi mutaxassislar va boshqalar.
- Shahar hududlarida esa quyidagi kadrlarga talab yuqori:
- muhandis-mexaniklar;
- umumta'lim maktablari o'qituvchilari;
- oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'qituvchilari;
- ishchilar va xizmatchilar;
- xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari;
- tibbiyot sohasi mutaxassislari;
- axborot texnologiyalari sohasida ishlovchilar va boshqalar.

Hozirgi paytda qishloq hududlarida inson resurslari asosan dehqonchilik, chorvachilik, pillachilik kabi faoliyatlar bilan shug'ullanmoqda. Biroq zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi natijasida agrar sohadagi mehnat xarakteri o'zgarib, bosqichma-bosqich industrial shaklga o'tmoqda. Natijada agroservis bilan bir qatorda agrosanoat ham qishloqlarda rivojlanish bosqichiga kirgan. Bu jarayonda ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash kabi sanoatlashgan faoliyatlar yo'lga qo'yilmoqda.

Shu bois agrosanoatni rivojlantirish masalasi qishloqdagi inson resurslarini ushbu yo'nalishga yo'naltirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, qishloqlardagi inson resurslari agrosanoatning rivojlanishida faol ishtirok etishi uchun zarur kadrlarni shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Bu esa, o'z navbatida, har bir hududning ehtiyojidan kelib chiqib, muayyan sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashni talab etadi.

Qishloq hududlari uchun mos malakali kadrlar tayyorlash, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish amaliyoti bo'yicha kompleks choralarni ko'rish zarur. Bu agrar sohada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Natijada qishloq aholisi iqtisodiy jihatdan faollashadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Hozirgi paytda ko'plab qishloq yoshlari oliy ta'lim muassasalarida tahsil olib, diplom olganidan so'ng o'z mutaxassisligi bo'yicha ish topolmagani sababli shaharlarda qolib ishlashga yoki chet ellarga ketishga majbur bo'lmoqda. Shu bois, bugungi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy ehtiyojlarga mos tarzda qayta tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq joylarda klasterlar bilan bir qatorda dehqonlar o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu jarayonda kichik va o'rta biznes subyektlarini shakllantirish obyektiv zaruratga aylanmoqda. Bu yo'l bilan har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z moliyaviy manbalariga ega bo'ladi. Kooperatsiyaning rivojlanishi agroklasterdan farqli ravishda, unga qo'shilgan har bir subyektning o'z mulkiga egalik qilishini va nisbatan mustaqil faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Bu esa har bir subyektning o'z biznesini rivojlantirishdagi ishtirokini mustahkamlaydi.

Kooperatsiya doirasida mahsulot yetishtiruvchilar bilan birga mahsulotni xarid qiluvchi, saqlovchi va sotuvchilar o'rtasida hamkorlik munosabatlari yo'lga qo'yiladi. Bunda "daladan dasturxonigacha" tamoyili asosida tizimli faoliyat yuritiladi. Tadqiqotchilarning hisob-kitoblariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlarining yo'qotilishi ko'rsatkichlari sezilarli darajada kamayadi. Chunki tabiiy sharoitda saqlangan taqdirda, oziq-ovqat mahsulotlarining yo'qotilishi 6 oy davomida 19,2 foizni tashkil etsa, zamonaviy sovtukichlarda saqlanganda bu ko'rsatkich atigi 5,0 foizgacha tushadi¹.

Qishloq joylarda ekologik barqarorlikka erishish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, shuningdek, ekotizimlarni muhofaza qilish yo'nalishida belgilangan muhim vazifalarning tizimli bajarilishini nazorat qilib borish zarur. Bu holat qishloq hududlarida ekologik barqarorlikni ta'minlash ustuvor vazifalardan biri ekanligini anglatadi.

Shuningdek, qishloq hududlarida sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar tizimini inson resurslarining zamon talablariga moslashtirish va ularning barqaror faoliyatini ta'minlashga qaratish lozim. Buning uchun ushbu

¹ Pardayev M.Q. Mahsulotlarni saqlab sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2017. - 38 bet.



sohalardagi tadbirlarni mukammal va izchil amalga oshirish talab etiladi. Inson resurslari sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy xizmatlar sohaslarida faol bo'lib, aholining ehtiyojlariga mos xizmatlarni ta'minlashi zarur.

Hozirgi paytda kasalliklarni davolashdan ko'ra, ularning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Shu bilan birga, aholining salomatligini saqlashda tabiiy mahsulotlar va dorivor o'simliklardan to'g'ri foydalanishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu yo'nalishda mamlakatimizda muayyan ishlar boshlangan. Xususan, turli sohalarda faoliyat yurituvchi tabiblar shakllangan. Misol tariqasida quyidagi shaxslarni keltirish mumkin: I.R. Asqarov, A. Markova, M.N. Nabiyev, V. Shalnev, A. Ibrohimov va boshqalar.²

Qishloqlarda ma'naviyat va ma'rifatni, madaniyat hamda milliy qadriyatlarni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Buni ta'minlash uchun qishloq hududlarida madaniy tadbirlarni tashkil etish, qadimiy an'ana va qadriyatlarni asrash bilan birga ularni rivojlantirish, yoshlar ongiga qadriyatlarimizga tayanib zamonaviy va innovatsion dunyoqarash orqali ma'naviy fazilatlarini singdirish zarur. Ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlar yaqin kelajakda qishloqlarda aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shaharlardagi inson resurslarini boshqarish sohasidagi mutaxassislar bilan qishloqdagi mutaxassislar o'rtasida o'xshashliklar bilan birga muayyan farqlar mavjud. Masalan, o'qituvchilar, shifokorlar, xizmat ko'rsatish sohasidagi ayrim kasb egalari qishloqda ham, shaharda ham faoliyat yuritadi. Biroq ba'zi kasblar faqat shaharlarga xosdir. Jumladan, muhandis-mexaniklar, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ishchilar va shaharga oid xizmatchilar asosan shaharlarda faoliyat ko'rsatadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qishloqlar uchun zarur kadrlar, asosan, shaharlarda joylashgan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanadi. Demak, agroservis xizmatlarining sifati va hajmi shahar bilan bevosita bog'liqdir.

Qishloq hududlarida agroservis xizmatlarini ko'rsatuvchi inson resurslari faoliyatini takomillashtirish yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar bir qator xulosalar chiqarish va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'ldi.

Birinchidan, qishloq hududlarida agroservis xizmatlarini ko'rsatuvchi inson resurslaridan samarali foydalanish uchun zamonaviy qishloq infratuzilmasiga mos malakali mutaxassislarni tayyorlash zarur, deb hisoblaymiz. Bu esa, ularning qishloqqa xos bilim va ko'nikmalarini oshirishni ham talab etadi.

Ikkinchidan, qishloq joylarda faoliyat yuritayotgan agroklastlar bilan birga dehqonlar o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi dolzarb masala shundaki, barcha ishtirokchilar yagona klaster rahbariga bo'ysunmasdan, mustaqil bo'lib, faqat o'zaro hamkorlik asosida faoliyat samaradorligini oshiradi. Bu esa sinergetik samaradorlikka olib keladi.

Uchinchidan, bugungi kun talablari qishloq joylarda ekologik barqarorlikka erishish bilan birga sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirishni ham zarur qiladi. Bu yo'l bilan inson resurslarining qishloq ehtiyojlariga moslashuvi va ularning hududda faoliyat yuritishga bo'lgan ehtiyoji saqlanib qoladi. Natijada qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish uchun imkoniyat yaratiladi.

To'rtinchidan, qishloq hududlarida eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lmish ma'naviyat va ma'rifatni, madaniyat va milliy qadriyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz. Chunki agrar sohaning davomiyligi milliy qadriyatlarimiz bilan bevosita bog'liq. Ayni paytda qadriyatlarimizni asrash masalasi dolzarb bo'lib, bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar kun tartibidagi eng muhim masalalar sirasiga kiradi. Zero, o'z qadriyatiga ega bo'lmagan millatning qadri ham bo'lmaydi.

Shaharlardagi inson resurslarini (IR) boshqarish sohasidagi mutaxassislar qishloqlardagi mutaxassislar bilan o'xshash jihatlarga ega bo'lishi bilan birga, muayyan o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir. Masalan, o'qituvchilar, shifokorlar va xizmat ko'rsatish sohasidagi ayrim yo'nalishlar ham qishloqda, ham shaharda mavjud. Biroq ayrim kasblar faqat shaharlarga xos. Jumladan, muhandis-mexaniklar, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ishlab chiqarish ishchilari va shaharga oid xizmat ko'rsatuvchi boshqa soha xodimlari, odatda, shaharlarda faoliyat yuritadi.

Ularning asosiy funksional vazifalari va faoliyat yo'nalishlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Birinchidan, inson resurslari analitikasida (IRA) korxonalar va tashkilotlarning mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, nomzodlarni tanlash va ishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda zamonaviy talablarga mos keluvchi mutaxassislarni jamoa ruhiyatiga mos holda tanlashga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Ikkinchidan, xodimlarning zamonaviy yo'nalishlarga mos ravishda rivojlanishini ta'minlash ham IR mutaxassislarning asosiy vazifalaridan biridir. Xususan, dual ta'lim asosidagi yondashuvlar, malaka oshirish

2 I.R. Asqarov. Sirlil tabobat. "Fan va texnologiyalar nashriyoy-matbaa uyi" nashriyoti, 2017. - 1084 bet., Travnik: zolotye retsepty narodnoy meditsiny /Sost. A. Markova: - M.: Eksmo; Forum, 2007. 928 s. Malaxov G.P. Selitelnye silы. 1-3 tom. - SPB.: IK "Kompleks", 1996.- 356, 307, 236 betlar. Nabiyev M.N. va boshqalar. Shifobaxsh ne'matlar. / M. Nabiyev, V. Shalnev, A. Ibrohimov - t.: Mehnat, 1989. - 192 bet. va h. k.



dasturlarini ishlab chiqish, xodimlarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlovchi mexanizmlarni yo'lga qo'yish zarurdir.

Uchinchidan, yangi ishga qabul qilingan xodimning jamoaga moslashuvini yengillashtirish, unga ijobiy muhit yaratish orqali ish samaradorligini oshirish va ichki nizolarning oldini olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'rtinchidan, xodimlarning ishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish, ular uchun adolatli va shaffof muhitni yaratish, manfaatlar tizimini shakllantirish orqali faoliyat samaradorligini oshirish mumkin.

Beshinchidan, xodimlarning ish faoliyatini tizimli ravishda monitoring qilish, ularning samaradorligini baholash, zarur hollarda o'zgarishlar kiritish tizimini yo'lga qo'yish lozim. Mehnat samaradorligi yuqori bo'lgan xodimlarning lavozimda ko'tarilishi, rag'batlantirilishi, ijtimoiy va moddiy e'tirofga loyiq ko'rilishi xodimlar uchun motivatsion omil bo'lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, har bir xodim zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yetarli malakaga ega bo'lishi lozim. Ish faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar bazasi, elektron tizimlar, tahlil vositalari bilan ishlay olish — zamonaviy inson resursi uchun muhim kompetensiyadir.

Yettinchidan, barcha sohalarida amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga rioya qilish tamoyili qat'iy saqlanishi kerak. Bu ishga qabul qilishdan boshlab, butun ish faoliyati davomida huquqiy normalarga amal qilish, tartib-intizomni ta'minlashda asosiy mezon sifatida qaraladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, IRA korxonalar va kompaniyalar faoliyatining samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, inson resurslari sohasidagi mutaxassislar tashkilotning strategik maqsadlariga erishish uchun kreativ yondashuvlarga ega bo'lishi, ilg'or uslublar va amaliyotlarni muntazam ravishda joriy etib borishi zarur. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalariga ko'ra, inson resurslarining tarkibiy tuzilmasi va boshqaruv mexanizmlarini to'g'ri yo'lga qo'yish kompaniya va tashkilotlar uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Shu asosda qator ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchi, har bir korxonalar va tashkilotda inson resurslariga oid ma'lumotlar tizimli tarzda to'planib borilishi lozim. Bu nafaqat xodimlarning sonini, balki ularning yoshi, jinsi, ma'lumoti, ish tajribasi, lavozimi, salohiyati va boshqa muhim ko'rsatkichlarni qamrab olishi zarur.

Ikkinchi, inson resurslari holati va undagi o'zgarishlar doimiy ravishda tahlil qilinib borilishi kerak. Bunday tahlillar turli usullar va ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi. Ularning natijalari grafiklar, diagrammalar va statistik modellashtirish usullari orqali aniq va ravshan ko'rinishda taqdim etilishi lozim. Bu esa har bir manfaatdor tomonning o'ziga xos baho berish va xulosa chiqarishiga imkon yaratadi.

Uchinchi, xodimlar o'rtasida samimiy hamkorlik bilan birga, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish muhimdir. Chunki har qanday yutuq va muvaffaqiyat zamirida adolatli raqobat muhitining mavjudligi yotadi. Raqobatbardoshlikni kuchaytirish maqsadida ilg'or xodimlarni namuna sifatida ko'rsatish, ularni munosib rag'batlantirish va lavozim pillapoyalarida ko'tarilishiga imkon yaratish lozim.

To'rtinchidan, inson resurslariga oid ko'rsatkichlar — masalan, ish staji, xodimning ishga qoniqish darajasi, mukofotlarning adolatli taqsimlanishi kabi omillarning jamoa ichida ochiqqligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Zero, bunday tahliliy ma'lumotlar nafaqat mavjud holatni baholash, balki kelgusida inson resurslarini boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, inson resurslarining batafsil va tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish kompaniyalar samaradorligini oshirish bilan birga, jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Chunki bu orqali xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, jamoaviy ishlash ko'nikmalari hamda psixologik omillar bevosita natijadorlikka ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu ilmiy-amaliy tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, ayniqsa qishloq xo'jaligida band bo'lgan inson resurslarini zamonaviy talablarga mos darajaga olib chiqish, shu asosda agroservis xizmatlarini takomillashtirish imkonini yaratadi. Natijada, aholi farovonligini oshirish hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan keng ko'lamlil ustuvor vazifalarni ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. — Chicago: University of Chicago Press, 1993. — 412 p.
2. Sen A. Development as Freedom. — New York: Anchor Books, 1999. — 384 p.
3. Giddens A. The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration. — Cambridge: Polity Press, 1984. — 402 p.
4. Хайитов А.Р. Инсон капитали ва миқдорий таҳлил усуллари. — Т.: Иқтисод-Молия, 2020. — 276 б.
5. Жураев М.Ш. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва меҳнат ресурсларининг ривожланиши. — Т.: Fan, 2018. — 254 б.



6. Feldman J., Martin A. Regional Labor Analysis Using GIS. – Journal of Regional Analysis and Policy, Vol. 42, No. 2, 2012. – pp. 113–128.
7. United Nations Development Programme. Human Development Report. – New York: UNDP, 2021.
8. OECD. Skills for Jobs: Measuring Mismatch and Planning for the Future. – Paris: OECD Publishing, 2020.
9. Бозоров Ш.М. Қишлоқ жойларда меҳнат ресурсларини самарали бошқариш масалалари. – Т.: Иқтисодиёт, 2019. – 198 б.
10. World Bank. World Development Report: Jobs. – Washington D.C.: World Bank Group, 2013. – 384 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
